



COMPARATIVE ANALYSIS OF MAHMUD ZAMAKHSHARI'S "ASAS AL-BALAGHA" AND "MUQADDAMAT AL-ADAB"

Sitora-Bonu Salimova

Base doctorate International Islamic Academy of Uzbekistan

E-mail: sitora9353@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Mahmud Zamakhshari, linguistics, lexicography, Asas al-Balaghah, Muqaddamat al-Adab.

Received: 22.08.25

Accepted: 23.08.25

Published: 24.08.25

Abstract: This article provides a scholarly analysis of Mahmud Zamakhshari's contribution to lexicography and linguistics. It particularly focuses on his renowned works "Asas al-Balaghah" and "Muqaddamat al-Adab", comparing their structure, style, and academic significance. The article also highlights the influence of his works on contemporary linguistic studies.

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING "ASOSU-L-BALOG'A" VA "MUQADDAMATU-L-ADAB" ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Sitora-Bonu Salimova

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik

akademiyasi tayanch doktoranti

E-mail: sitora9353@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mahmud Zamaxshariy, tilshunoslik, lug'atshunoslik, Asosu-l-balog'a, Muqaddamatu-l-adab.

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk alloma Mahmud Zamaxshariyning lug'atshunoslik va tilshunoslik sohasidagi merosi ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Xususan, uning "Asosu-l-balog'a" va "Muqaddamatu-l-adab" nomli mashhur asarlari mazmunan va shaklan qiyosiy o'rganiladi. Asarlarning uslubiy va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi hamda ularning zamonaviy lingvistikaga ta'siri ko'rsatiladi.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ «АСАСУ-ЛЬ-БАЛАГА» И «МУКАДДАМАТУ-ЛЬ-АДАБ» МАХМУДА ЗАМАХШАРИ

Ситора-Бону Салимова*Базовый докторант Международная академия исламоведения Узбекистана**E-mail: sitora9353@gmail.com**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Махмуд Замахшари, лингвистика, лексикография, Асасу-ль-балага, Мукаддамату-ль-адаб.**Аннотация:** В данной статье научно рассматривается лексикографическое и лингвистическое наследие великого ученого Махмуда Замахшари. Особое внимание уделяется анализу его знаменитых трудов “Асасу-ль-балага” и “Мукаддамату-ль-адаб”. Эти труды сопоставляются по содержанию, структуре и языковым особенностям, также оценивается их актуальность для современной лингвистики.

Kirish. Ilm-fan tarixida o‘z nomini abadiylikka muhrlagan allomalar orasida Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) alohida o‘rin egallaydi. U o‘zining ilmiy izlanishlari, tilshunoslikdagi chuqur tadqiqotlari va yuksak adabiy uslubi bilan tanilgan. Zamaxshariy asarlarining dolzarbligi shundaki, u tilga faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki tafakkur ifodasi sifatida qaragan. Ayniqsa, uning lug‘atshunoslik sohasidagi merosi bugungi zamonaviy tilshunoslik uchun ham bebaho manba hisoblanadi.

Asosiy qism. Ilm-fan taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, IX–XIV asrlar musulmon Sharqida o‘zining intellektual salohiyati, jahonshumul kashfiyotlari bilan tanilgan vatandoshlarimizning nomlarini iftixor bilan tilga olinishini ko‘rishimiz mumkin. “Musulmon Renessansi”, deb atalgan ana shu davrga mansub ajdodlarimizdan biri - islom dunyosida taniqli bo‘lgan mashhur tilshunos va lug‘atshunos olim Mahmud Zamaxshariydir. O‘z aqlu zakovati va boy ilmiy merosi bilan nafaqat Sharqda, balki butun jahonga mashhur bo‘lgan Abu-l-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariy hijriy 467-yilda rajab oyining 27-kuni (milodiy hisobda 1075-yilning 19-martida) Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilgan.

Zamaxshariy o‘z davrining zabardast olimlaridan biri bo‘lib, fanning turli sohalariga oid yetmishga yaqin asarlar yozgan. Afsuski, bizga shulardan ba’zilarigina yetib kelgan, xolos. Allomaning asarlari ro‘yxati turli manbalarda turlicha keltiriladi. Nemis sharqshunos olimi K.Brokkelman o‘zining “Arab adabiyoti tarixi” nomli asarida Mahmud Zamaxshariyning 31 ta asari bo‘lgani haqida ma’lumot bergan bo‘lsa, doktor Ahmad Muhammad Xufiy “Zamaxshariy” nomli risolasida uning 48 ta asari borligini aytib o‘tadi. Akademik A.Rustamovning “Mahmud Zamaxshariy” kitobida allomaning 39 ta asari bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor. B.Z.Xolidov o‘z maqolasida Zamaxshariy 55 ta asar yozganini ta’kidlaydi. Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining yana bir tadqiqotchisi U.Uvatov “Nozik iboralar” nomli kitobida allomaning 34 ta asariga oid

ma'lumot bergan[1]. 1998-yili Bayrutda Mahmud Zamaxshariyning "Asosu-l-balog'a" asari chop etilgan va uning muqaddima qismida tadqiqotchi olim Muhammad Bosil Uyun Sud allomaning 65 ta asari ro'yxatini keltirgan.

Olimning ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish jahon sharqshunosligida o'zining muayyan an'analariga ega. Xususan, Zamaxshariyning tarjimai holi, uning ilmiy faoliyati va yaratgan asarlari haqida olimlar, tadqiqotchilar ko'plab asarlar yaratganlar.

Mahmud Zamaxshariyning ilmiy faoliyati umumiy tarzda uzoq vaqtdan beri o'rganilib kelinmoqda. O'rta asr arab tadqiqotchilaridan ibn Xallikon[2], Yoqut Hamaviy[3], Hoji Xalifa[4]lar o'z asarlarida Mahmud Zamaxshariyning hayoti va merosiga oid qimmatli ma'lumotlarni keltirganlar. Unga nafaqat Sharq, balki G'arb, xususan Yevropalik sharqshunoslar ham katta qiziqish bilan qaraydilar. Yirik sharqshunoslar va tadqiqotchilardan K.Brokkelman[5], I.Yu.Krachkovskiy[6], B.Z.Xolidov[7], A.B.Xolidov[8], V.M.Belkin[9]larning allomaning ilmiy merosi ustida ilmiy tadqiqotida keltirilgan ma'lumotlar ham Mahmud Zamaxshariyning hayoti va ilmiy merosini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamaxshariy o'z davrining yetuk tilshunosi, lug'atshunosi, islomshunosi, adabiyotshunosi sifatida mashhur. Bunda ustoz – tilshunoslik, lug'atshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida dong taratgan Abu Mudar Mahmud ibn Jarir ad-Dabbiy al-Isfahoniy (1113-yili Marvda vafot etgan)ning hissasi katta bo'lgan. Yoqut al-Hamaviyning yozishicha, Zamaxshariyning ustoz Abu Mudar Mahmud ibn Sharif al-Isfahoniy tilshunoslik sohasida, ayniqsa, nahvu sarfda beqiyos olim bo'lgan[10].

Allomaning ilmiy faoliyatida arab tili asosiy o'rinni egallaydi. U o'z asarlarini asosan arab tilida yozgan. I.Yu.Krachkovskiyning fikricha[11], kelib chiqishi arab bo'lmagan Zamaxshariy arab madaniyatining ko'zga ko'ringan namoyandasi bo'lib yetishgan. U arab tilini yoshligidan katta havas va ishtiyoq bilan o'rgandi, arablarning hayoti va ularning urf-odatlarini, turli lahjalarini uzoq yillar tinimsiz tadqiq qildi. Olim arab tiliga alohida mehr bilan qarar edi. Shu boisdan ham, bu tilni chuqur o'rganish, arab tilining grammatikasi, leksikasi, umuman, arab tilshunosligiga oid bir qancha muhim asarlarni yaratgan. Uning jahonga dong'i ketgan "Muqaddamatu-l-adab", "Al-Mufassal", "Asosu-l-balog'a" kabi yirik ta'liflari mana shu yo'nalishda yozilgan asarlardir. Arablarning: "Agar xorazmlik shu ko'sa, cho'loq bo'lmaganida, arablar o'z tillarini bilmas edilar!" - deb lo'nda qilib allomaga bergan bahosiga hech bir izohning hojati bo'lmas kerak[12]. Arab tiliga, uning behad katta imkoniyatlariga tan bergan alloma barcha asarlarini faqat arab tilida yaratgan. Bu tilni mukammal o'zlashtirganligi, albatta, katta mehnat va tinimsiz izlanishlar samarasidir.

Mahmud Zamaxshariy asarlarining muqaddimasida muttasil ravishda arab tilini arab madaniyatining quroli sifatida e'tirof etgan. Arab olimlari Zamaxshariyning ilmiy faoliyatiga

chuqur ehtirom bilan qarab, u haqda shunday deganlar: “Arablar Movarounnahrni qurol bilan egallay olmadilar, lekin xorazmlik alloma o‘z hassasi bilan butun arab dunyosini egallab oldi”[13].

Alloma ilm-fanning turli sohalarini, jumladan, arab tilining sarf-u nahvini, adabiyotshunoslik, lug‘atshunoslik, tilshunoslik, geografiya, aruz, mantiq, diniy ilmlar, Qur‘on tafsirini mukammal egallagan. Tilshunoslikka oid bir qancha asarlari olimning ilmiy merosining salmoqli qismini tashkil etadi.

Quyida allomaning tilshunoslikka oid bo‘lgan ikki buyuk asari “Muqaddamatu-l-adab” va “Asosu-l-balog‘a” asarlarini tuzilishi jihatdan hamda tarkibiy qismlari bo‘yicha qiyosiy tahlilini keltiramiz.

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asari murakkab tuzilishga ega bo‘lib, muqaddima, ismlar, fe‘llar, harflar (yordamchi so‘zlar), ismlarning turlanishi, fe‘llarning tuslanishi kabi qismlardan iborat. “Muqaddamatu-l-adab” fanimizda lug‘at nomi bilan ham mashhur, chunki asarning ismlar, fe‘llar qismlari lug‘at tarzida tuzilgan va qolgan qismlarga nisbatan hajman katta bo‘lgan. Asar 1137-yillari yozib tugallangan. Zamaxshariy o‘z asarida o‘sha davr arab tilining iste‘molda bo‘lgan barcha so‘zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e‘tibor qilgan. Shu boisdan ham Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo‘nalishdagi dastlabki asarlardan deyishga haqlimiz. “Muqaddamatu-l-adab”ning arab, fors, turkiy-o‘zbekcha, mo‘g‘ulcha so‘zlik kiritilgan qo‘lyozmalari mavjud. Ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, grekcha nusxasi ham mavjud[14].

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asari qisqa muqaddima bilan boshlanadi. Muallifning aksariyat asarlari, jumladan, اطواق الذهب في المواعظ والخطب Atva: qu-z-zahab fi-l-mava: iz va-l-xutab - “O‘git va nasihatlarining oltin shodalari”, اساس البلاغة - Asa: s u-l-bala: g‘a - “Balog‘at asosi” ham mana shunday qisqa muqaddima bilan boshlanadi. Mahmud Zamaxshariy adabiy asarlardagi kabi an‘anaviy uzun kirish so‘zlaridan voz kechib, muqaddimada asosiy maqsad - asarning yozilish tarixi, tuzilishi haqida ma‘lumotlarni keltiradi. Asar muqaddimasida Zamaxshariy arab tilining boyligi, uni o‘rganishning zarurligi to‘g‘risida o‘z fikrlarini bayon etadi.

Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asari ko‘p tilli, murakkab tuzilishli, qomusiy asar bo‘lib, bu kabi asarlar filologiya fani tarixida kam uchraydi. “Muqaddamatu-l-adab”ning birinchi ismlar qismi, tom ma‘noda zamonaviy qomusiy lug‘at vazifasini o‘tasa, uning ikkinchi fe‘llar qismi arab tili grammatikasi qoidalari asosida yuksak ilmiy saviyada mukammal tuzilgan. “Muqaddamatu-l-adab” yordamchi so‘zlar, ismlarning turlanishi, fe‘llarning tuslanishi kabi uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi qismlar sof arab tili grammatikasi qoidalariga bag‘ishlangan. Har bir grammatik qoida ko‘plab misollar bilan mustahkamlangan[15].

Zamaxshariyning bu asarida o‘sha davrdagi adab ilmi jumlasiga kiruvchi barcha bilimlar haqidagi ma‘lumotlar kiritilgan. Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asari ustida ko‘p

yillardan buyon ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan filologiya fanlari doktori, professor Zohidjon Islomovning yozishicha, bizgacha asarning arabcha-forscha, arabcha-turkiycha, arabcha-xorazmcha ikki tilli, arab-fors- turkiycha uch tilli, arabcha-forscha-mo'g'ulcha-turkiycha so'zlik kiritilgan to'rt tilli qo'lyozmalari yetib kelgan. Darhaqiqat, allomaning bu asari tilshunoslikka oid yuksak bilim, etarli ilmiy malakani o'zida mujassam etgan bo'lib, yaratilgan davridan boshlab hozirga qadar noyob qomusiy manbalardan biri hisoblanadi[16].

Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosida "Asosu-l-balog'a", ya'ni "Balog'at asoslari" nomli lug'at alohida o'rin tutadi. Lug'at nafaqat allomaning lug'atshunoslikka oid asarlari orasida, balki butun arab lug'atshunosligida ham muhim ahamiyatga ega. Akademik A.Rustamovning fikricha, Mahmud Zamaxshariy o'zining "Asos-ul-balog'a" asari bilan arab lug'atshunosligini bir necha pog'ona yuqori ko'targan[17]. Husayn Nassorning ta'kidlashicha, Mahmud Zamaxshariy aynan shu asari bilan arab lug'atshunosligini to'rtinchi maktabiga asos solgan. Zamaxshariy mazkur lug'atda so'zlarni ularning barcha o'zak undoshlarini hisobga olgan holda alifbo tartibida joylashtirgan. Shu bilan birga, lug'atdagi so'zlarni o'sha davrda iste'molda bo'lgan jumla va iboralar tarkibidan ajratmagan holda bergan. Bu usul so'z ma'nolarini har tomonlama va batafsil izohlash uchun o'ziga xos zamin yaratadi.

Mahmud Zamaxshariy "Asos-ul-balog'a"da arab adabiy tilining fasohatini aks ettirishga harakat qilgan. Lug'atning muqaddima qismida yozishilicha, muallif bu usul bilan u so'zga chechan kishilar, yetuk adiblar yetishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Aynan shuning uchun u o'z asarini "البلاغة اساس", ya'ni "Balog'at asoslari" deb nomlagan. Lug'at arab alifbosiga muvofiq 28 harfga bo'lingan bo'lib, 3742ta lug'at maqolani o'z ichiga oladi. Muallif har bir harf qismini «bob» deb nomlagan. Boblar esa o'z navbatida so'zning ikkinchi o'zak undoshiga muvofiq ajratilgan va ular "fasl" deb nomlangan.

"Asosu-l-balog'a" lug'ati nafaqat Mahmud Zamaxshariyning leksikografik merosida, balki an'anaviy arab lug'atshunosligining rivojlanish tarixida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda Fozil Solih as-Samaroiy shunday deydi: "Asosu-l-balog'a" boshqa lug'atlardan ajralib turadigan lug'atdir. Undan avval ham, keyin ham lug'atshunoslik ilmida bunday uslubda lug'at tuzilmagan. Bu lug'at so'zlarning joylashtirilishi osonligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan boshqa lug'atlar uning o'rnini bosa olmaydi. Agar boshqa lug'atlar o'z kuchini yo'qotsa ham, "Asosu-l-balog'a" o'z kuchida qoladi"[18].

"Asosu-l-balog'a"da jami 3742ta lug'at maqola bo'lib, ular tarkibiga ko'ra quyidagi qismlardan iborat:

- a) bosh so'z;
- b) bosh so'zning asosiy ma'nosi;

v) bosh soʻz hosilalari (feʼllarning boblari (oʻtgan va hozirgi zamon), aniq va majhul daraja sifatdoshlari, masdarlari va hokazo) ishtirok etgan jumlar;

g) bosh soʻzni izohlash uchun qoʻllanilgan Qurʼon oyatlari, hadislar, xalifa va sahobalarning soʻzlari, sheʼriy asarlardan olingan parchalar, frazeologizmlar, maqollar;

d) soʻzning majoziy maʼnosi;

e) bosh soʻz majoziy maʼnoda ishlatilgan jumlar.

“Asosu-l-balogʻa”da lugʻat maqolalarni hajmiga koʻra qisqa lugʻat maqolalar, oʻrtacha hajmga ega lugʻat maqolalar hamda uzun lugʻat maqolalarga ajratish mumkin. Asardagi umumiy lugʻat maqolalar 3742 tadan iborat boʻlsa, ulardan 480 tasini qisqa lugʻat maqolalar tashkil etadi. Qisqa lugʻat maqolalar hajman kichik boʻlib, ularda bosh soʻzning maʼnosi bir yoki ikki jumla bilan izohlangan. Bosh soʻzning faqatgina haqiqiy maʼnosi berilgan. “Asosu-l-balogʻa”dagi qisqa lugʻat maqolalarni tashkil etuvchi bosh soʻzlarning aksariyati oʻsha davrda nisbatan kam ishlatiladigan soʻzlardan iborat boʻlgan.

Oʻrtacha hajmdagi lugʻat maqolalarda qisqa lugʻat maqolalardan farqli oʻlaroq, bosh soʻzning haqiqiy maʼnosi bilan birga majoziy maʼnosi ham berilgan. Soʻzlarni izohlashda illyustrativ materiallardan kam foydalanilgan.

Uzun lugʻat maqolalarda bosh soʻzning hamma maʼnolari aks etadi. Ularning izohi yarim betdan ikki betgacha boʻlishi mumkin. Bunday lugʻat maqolalarning deyarli barchasida soʻzning haqiqiy maʼnosi bilan birga majoziy maʼnosi ham izohlangan boʻladi[19].

Mahmud Zamaxshariy soʻzlarni asosan quyidagi manbalarga tayangan holda izohlagan. Ular: Qurʼon, hadis, frazeologizmlar, maqollar va sheʼriy parchalar. “Asosu-l-balogʻa”dagi 447ta misol Qurʼondan olingan. Bu hodisa Qurʼonning oʻsha davrda ham adabiy, ham ilmiy manba sifatida keng isteʼmolda boʻlganini koʻrsatadi.

Bundan tashqari, lugʻatda soʻzlarni izohlashda paygʻambar Muhammad (s.a.v.) hadislaridan ham keng foydalanilgan. Hadislar asosan taʼlim-tarbiyaga, odob-axloqqa doir boʻlib, pand-nasihatlariga boy boʻlganligi sababli olim ulardan mohirona foydalangan.

“Asosu-l-balogʻa”da soʻzlarning koʻchma maʼnolarini izohlashda frazeologizm va maqollar asosiy manba boʻlib xizmat qilgan. Ularning bir qismi hozirga kelib isteʼmoldan chiqqan boʻlsa, bir qismi arab adabiyotida hozirgacha ishlatiladi. Shu bilan birgalikda, lugʻat maqolalarda soʻz maʼnolarini ochishda XI-XII asrda yashab, ijod qilgan yaqin shoirlarning asarlaridan olingan, sheʼriy parchalardan foydalanilgan[19].

“Asosu-l-balogʻa” asari Zamaxshariyning arab tili balogʻati, uning grammatik xususiyatlarini mukammal bilishini koʻrsatadi. Muallif asarda mavjud bosh soʻzlarning nozik farqlariga ham eʼtibor bergan holda izohlagan. Olim arab tili bilan bogʻliq boʻlgan barcha ilmlarni,

Qur'on, hadis, frazeologizmlar, maqollar, arab shoirlarining asarlarini mukammal bilgan va ulardan o'z asarlarida keng foydalangan.

Mezoni	Asosu-l-balog'a	Muqaddamatu-l-adab
Til	Arabcha	Arab, fors, turkiy, mo'g'ulcha
Maqsad	Balog'at asoslarini o'rgatish	Amaliy til o'rgatish
Tuzilishi	Alifbo tartibida	Tematik-mavzuli, mavzu asosida
Metodologiyasi	Stilistik va semantik tahlil	Grammatik va tarjimaviy yondashuv
So'z tahlili turi	Sinonimiya, tashbeh, istiora, kinoya	Lug'aviy va grammatik ma'no berish

Xulosa. Mahmud Zamaxshariy o'z davrining ilg'or tilshunosi, nazariyotchisi va adiblaridan biri sifatida arab tilshunosligining yuksalishiga katta hissa qo'shgan. Uning "Asosu-l-balog'a" asari balog'at ilmini chuqur tahlil qilish imkonini bersa, "Muqaddimatu-l-adab" esa ko'p tilli o'rganish metodikasiga asos solgan. Har ikki asar bugungi lingvistika uchun muhim nazariy va amaliy manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nosirova M. O'rta asrlar arab nahvidan namunalar (Mahmud Zamaxshariyning "Unmuzaj fi nahv" risolasi asosida). – T.: ToshDSHI nashriyoti, 2004. B.5.
2. Ibn Xallikan. Kitob: Wafayat al-A'yan wa Anba' Abna' al-Zaman. Qohira: Dar al-Sa'ada, 1881. – B. 107.
3. Yaqut al-Hamawi. Mu'jam al-Buldan. Qohira: Matba'at al-Sa'ada, 1906. – B. 388-389.
4. Haji Khalifa. Kashf al-Zunun 'an Asami al-Kutub wa al-Funun. Qohira: Dar al-Sa'ada, 1894. – 506 b.
5. Brockelmann C. Geschichte der arabischen litteratur. Bd. I. - Weimar, 1898. - S.289-293., Brockelmann C. Geschichte der arabischen litteratur. Bd. I. - Leiden, 1937. – S.507-513.
6. Krachkovskiy I. Yu. Izbrannie sochineniya. 4-tom. – M.-L.: Izd-vo AN SSSR, 1957. – S.313.
7. Xalidov B. Z. Zamaxshari // Semitskie yaziki. Vipusk 2 (ch. 2). – M.: Nauka, 1965. – S.542-556.
8. Xalidov A. B. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya tradisiya. – M.: Nauka, 1985. – S.66, 147, 195, 246.
9. Belkin V. M. Arabskaya leksikologiya. – M.: Izdatelstvo Moskovskogo universiteta, 1961. – S.169-170.
10. Uvatov U. Xorazmning olis yulduzlari // Sharq yulduzi, 1991 №2. – B.185.

11. Krachkovskiy I. Yu. Izbrannie sochineniya. – T. 4 – M.–L.: Izdatelstvo AN SSSR, 1957 –B.313.
12. Uvatov U. Mahmud Zamaxshariy. – T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,1995. – B.35.
13. Hakimov A. Zamaxshariy tilshunos olim // Sharqshunoslik, 1999 №1 – 2 – B.278.
14. Nosirova M. O‘rta asr arab nahvidan namunalar. – T.: ToshDSHI nashriyoti, 2004. –B.7.
15. Islomov Z. Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asaridagi turkiy fe’llar tahlili Filol. fan. nom. ... dis. – T., 1993. – B.18.
16. Uvatov U. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,1995. – B.25.
17. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Fan, 1971. – B.12.
18. Fozil Solih as-Samaroiy. Ad-dirasat-in-nahviyya va-l-lug‘aviyya ‘inda-z-Zamaxshariy. – Bag‘dod, 1970. – B.142.
19. Sulaymonova N.A. Mahmud Zamaxshariy “Asos-ul-balog‘a” asarining manbashunoslik tadqiqi. PhD diss. - T.: 2007. – B.46.